

78.31.0.  
X - 28.

**PRIMOQUL XO'JAMQULOY,  
ODIL YUNUSOV**

**ZAMONAVIY MUSIQA VA  
VOKAL ASOSLARI**



78,37.0.  
№-28.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

-14032/33-

PRIMOUL XO'JAMQULOY  
ODIL YUNUSOV

ZAMONAVIY MUSIQA VA VOKAL ASOSLARI  
Oliy ta'lim muassasalari musiqqa ta'limi yo'nalishi talabatlari  
uchun  
O'QUV QO'LLANMASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**  
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
«Yangi chiqish»  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**  
1-FILIALI

UO'K 78.37.0  
K BK 285.35  
X-28

**Xo'jamqulov P., Yunusov / Zamonaviy musiqa va vakal asoslari. O'quv**

**qo'llanma.** / O'quv qo'llanma. - Chirchiq: «Yangi chirchiq book», 2023. — 160  
bet.

Mazkur o'quv qo'llanma musiqa ta'limi yo'nalishgi talabalari, o'quvchilari va konsertmasterlariga mo'ljallangan bo'lib, u "Musiqqa o'qitish metodikasi" namunaviy Dasturiga binoan ishlab chiqilgan Ishchi-o'quv dasturiga asosan tuzilgan. O'quv qo'llanmada zamonaviy musiqa va vakal asoslari, ijrochilik yo'nalishlari hamda vakal asarlari tahlil qilib berilgan. Unda o'qitishning kredit-modul tizimi talablari asosida tahlil amalga oshirilgan.

Qo'shiq ijrochilari: Ko'shkarova K.J.

Abduzaimova Sh.

Konsertmeyster: Abdullayeva S.K.

Iyagirzochilar: A.Lulfilayev, TDDPU professori

Sh.Mahkamova CHDPU dosenti

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 30 dekabrda 429-sonli buyrug'iga asosan nashrga lavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8977-5-5

© Xo'jamqulov P., va b., 2023  
© «Yangi chirchiq book», 2023

## MUNDARIJA

Kirish	.....	4
<b>1-modul. Musiqqa va vakal asoslarining nazariy xususiyatlari.</b>	.....	4
1-mavzu: Musiqada vokal san'ati va uning ahamiyati	.....	5
2-mavzu: O'zbek musiqa san'ati namoyandalari	.....	17
3-mavzu: Vokal va zamonaviy musiqaning maqsad va vazifalari	.....	37
4-mavzu: XX asr vokal san'ati rivojining xususiyatlari	.....	42
<b>2-modul. Musiqqa va vakal san'ati metodikasi.</b>	.....	47
5-mavzu: Xonandalik asoslari	.....	47
6-mavzu: Vokals an'atida ovozni yo'lga qo'yish	.....	55
7-mavzu: Vokal musiqa pedagogikasining asoslari	.....	71
<b>3-modul. Vokal va musiqa ijrochiligi asoslari.</b>	.....	76
8-mavzu: Vokal va zamonaviy musiqa asarlari tahlili	.....	76
9-mavzu: Nafas olish va chiqarish xususiyatlari	.....	81
10-mavzu: Kuylash uslubiyoti	.....	88
<b>4-modul. Vokal asarlarinamunalari.</b>	.....	97
Mudhiya M. <i>Burxonov musiqasi A. Ortipov she'ri</i>	.....	101
Chaman Ichra O. <i>zbek xalq qo'shig'i T. To'la she'ri</i>	.....	106
Davron suraylik H. <i>Rahimov musiqasi O'zbek xalq kuyi</i>	.....	109
Ravfliyor X. <i>Leonov musiqasi M. Boboyev she'ri</i>	.....	114
Go'zal Toshkent M. <i>Leviyev musiqasi T. To'la she'ri</i>	.....	120
Dugonlar S. <i>Yudakov musiqasi Sh. Rashidov she'ri</i>	.....	126
Paktazorga parvonalar I. <i>Xamraev musiqasi Yo. Mirzo she'ri</i>	.....	132
Oq kaplar H. <i>Xasanov musiqasi M. Boboyev she'ri</i>	.....	138
Yo'llarim M. <i>Ashrafy musiqasi T. To'la she'ri</i>	.....	143
Ibrog'ulda yonib H. <i>Rahimov musiqasi O' Rashid she'ri</i>	.....	149
Omangay tong T. <i>Jalilov musiqasi S. Abdullayev she'ri</i>	.....	154
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	.....	155

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” 2022-2026 yillarda mamlakatimizda ta’lim sifatiga erishish vazifasi qo‘yilgan. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim muassasalarida musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda ham sifatli ta’lim jarayonini tashkil qilish va kasbiy yetuk mutaxassislar tayyorlash zaruriyat hisoblanadi. Buning uchun bo‘ljak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini keng ko‘lamli tarkib topirish taqozo etiladi. Shu jihatdan zamonaviy musiqa va vakal asoslari bo‘yicha bo‘ljak musiqa o‘qituvchilariga nazariy bilim, ijrochilik metodikasi va amaliy faoliyat asoslari bo‘yicha ko‘nikmalar berish dolzarbdir.

Mazkur o‘quv qo‘llanma “Musiqqa o‘qitish metodikasi” o‘quv fanining nanunaviy dasturi asosida ishlab chiqilgan Ishaqi-o‘quv dasturiga tayangan holda tuzildi. Unda zamonaviy musiqa va vakal asoslarining nazariy xususiyatlari, metodikasi, ijrochilik asoslari tahlil qilinib, eng muhim va mashhur vakal asarlari namunalari taqdim etildi.

O‘quv qo‘llanmani tayyorlashda musiqashunos, vakal namoyondalari va musiqa pedagogikasi olimlarining yondashuvlari, qarashlari hamda metodik tavsiyalariga asoslanildi. Ayna paytda, zamonaviy musiqa va vakal asoslari yangicha yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Shu sababli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda bugungi kun talablari va ehtiyojlari hisobga olindi.

Bo‘ljak musiqa o‘qituvchilarining zamonaviy musiqa va vakal asoslari bo‘yicha kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lishi zaruriyatlardan biridir. Chunki bunda “zamonaviy” tushunchasi barchaga ma’qul va ommaviy ma’nosida qo‘llaniladi. Mazkur masalalar bo‘yicha bo‘ljak musiqa o‘qituvchilarining nazariy bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir.

## I-MODUL. MUSIQA VA VOKAL ASOSLARINING NAZARIY XUSUSIYATLARI

### I-mavzu: Musiqada vokal san’ati va uning ahamiyati

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida musiqa va vokal san’atining rivojlanishi o‘zlashtirish bo‘ljak musiqa o‘qituvchilari uchun muhim ahamiyatga egadir. Bunda ayniqsa, zamonaviylik an’anasiga e’tibor berish va yoshlar, umuman barcha kishilar tomonidan tinglanadigan ommaviy musiqa va vokal asarlarining to‘g‘ri ijro etilishiga e’tibor berish hamda ular bo‘yicha musiqiy-estetik ko‘nikmaga ega bo‘lish musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiradi. Shu jihatdan bu o‘rinda musiqa san’atida vakalning ahamiyati to‘g‘risida tushunchalarga ega bo‘lish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Vokal san’ati xalqlarning musiqiy ijodi orasida eng ommabop va keng tarqalgan bo‘lib, boshqa barcha san’at turlari singari, nafakat hayotiy tajribaga, balki o‘z nazariyasiga ham egadir. Xususan, o‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq muntoz musiqasi, ommaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqillik sharoitida bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayotgan, tarixan qadri an’analariimizga bo‘lgan e’tibor, ularni yangilagan islox e’tibor jarayoni ustivor yo‘nalish kasb etdi.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tushlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o‘lgan ajdodlarimiz

bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqaga ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi muborak Mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga muvofiqat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy musiqaga va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehqibbatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda Mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

Ashula, musiqaga, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqaga san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermog'ga. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy makuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy san'at bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros,

odana va rasmiy - rusumlar, milliy makura, vatandparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

"Xalqimizning kelajagi, - deb yozadi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, - eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmastigi lozim. Ma'naviylik va ma'naviylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchi o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi".

Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma'naviy jabhalarining barcha yo'nalishlari o'zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo'ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o'ziga xos o'rnini baholash, uning ta'sirchanlik kuchini Mustaqillik makurasi tomon yo'naltirish uning bosh mezon ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko'ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-ethri ana shu tamoyillar yo'lida yo'naltirilgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Musiqiy madaniyat o'zining serqitraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqaga merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yotak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan ehtiyoj va aslula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atrofida maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan sado banakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi.

XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. Ehtimol ba'zi bir hollarda milliy musiqaga madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham e'tirof etish